

<http://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)



ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

7
—
2021

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАД҆ҚИҚОТЛАР
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 7, 2021
декабрь

<p>Муассис:</p> <p>Бухоро давлат университети Фан ва таълим МЧЖ</p> <p><u>Бош мухаррир:</u> Маъмуроў Баҳодир Бахшуллаевич</p> <p><u>Жамоатчилик кенгапси раиси:</u> Хамидов Обиджон Ҳафизович, Бухоро давлат университети ректори.</p> <p><u>Тахририят кенгапси раиси:</u> Махмудов Мэлс Ҳасанович</p> <p><u>Масъул котиб:</u> Акрамова Гулбахор Ренатовна</p> <p><u>Тахририят манзили:</u> Бухоро шаҳар, Қ.Муртазоев кӯчаси, 16-й</p> <p><u>Телефон:</u> +998(90)744-00-22</p> <p><u>E-mail:</u> eirjurnal2020@gmail.com</p> <p><u>Журналнинг электрон сайти:</u> www.interscience.uz</p> <p>Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил 30 сентбрдаги 306/6-сон Қарори билан ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ</p> <p>ФАНЛАРИ бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илемний даражасига талағорларнинг диссертация ишлари юзасидан асосий илемний натижаларини чоп этиши тавсия етилган илемний нашрлар рўйхатига киритилган</p> <p>Босишга руҳсат этилди: 25.12.2021 й. Қоғоз бичими 60x84 1/8. б/т.12,5. Буюртма рақами 12 «Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди. Бухоро шаҳар</p> <p>Журнал 28.07.2021 йилда 9305 раками билан Ўзбекистон Оммавий аҳборот воситалари давлат рўйхатидан ўтган.</p> <p>Журнал 2021 йил ноябрь ойидан бошлаб ҳар ойда 1 марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилади.</p> <p>«Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илемний-ме- тодик журналидан кўчириб босиши тахририятнинг розилиги билан амалга оширилади</p> <p>Мақолада келтирилган фактларнинг тўғрилиги учун муаллиф масъуллар</p>	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th colspan="2" style="text-align: left; padding: 5px;">07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="padding: 5px;">Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фарғона водийсининг полиэтник ҳолати</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">7</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">15</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">20</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">31</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">36</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">41</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">45</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">50</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: left; padding: 5px;">10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">57</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">64</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">72</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">78</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Ro‘ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o‘rta ta’limda sintaksis bo‘limini o‘qitishda optimal yondashuv sifatida</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">86</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Altinova F. P. Oxunjonova F. A. Muqimiyl, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">95</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: left; padding: 5px;">13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">100</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши</td><td style="text-align: right; padding: 5px;">112</td></tr> </tbody> </table>	07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ		Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фарғона водийсининг полиэтник ҳолати	7	Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони	15	Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида	20	Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари	31	Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили	36	Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари	41	Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar	45	Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси	50	10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ		Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари	57	Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари	64	Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari	72	Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари	78	Ro‘ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o‘rta ta’limda sintaksis bo‘limini o‘qitishda optimal yondashuv sifatida	86	Altinova F. P. Oxunjonova F. A. Muqimiyl, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik	95	13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ		Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода	100	Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши	112
07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ																																							
Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фарғона водийсининг полиэтник ҳолати	7																																						
Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони	15																																						
Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида	20																																						
Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари	31																																						
Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили	36																																						
Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари	41																																						
Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar	45																																						
Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси	50																																						
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ																																							
Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари	57																																						
Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари	64																																						
Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari	72																																						
Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари	78																																						
Ro‘ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o‘rta ta’limda sintaksis bo‘limini o‘qitishda optimal yondashuv sifatida	86																																						
Altinova F. P. Oxunjonova F. A. Muqimiyl, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik	95																																						
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ																																							
Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода	100																																						
Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши	112																																						



Жуманиёзова М. Т. Малака ошириш жараёнида ижтимоий-гуманитар йўналиш ўқитувчиларининг касбий креативлигини шакллантириш методлари ва воситалари	118
Umaraliyeva M.A., Gulmonova D.B. Ta'limjarayonini takomillashtirishning modifikatsion imkoniyatlari	127
Турлибаева Г. М. Ихтисослашган умумтаълим мактаби ўқитувчининг иқтидорли ўқувчилар стратегияси	135
Халирова X. М. Неонологик ёндашув асосида бошлангич синф ўқувчилари онгида “тарбия” фанини шакллантириш механизmlарини такомиллаштириш ижтимоий зарурият сифатида	139
Qosimov F. M., Qosimova M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari mutanosibligini ta'minlash yo'llari	147
Почукаева Г. В., Маджуга А. Г. Эмпатическая культура личности как основа проектирования человекомерных систем: опыт концептуализации проблемы	156
Sayfullayeva D. A., Bozorova M. Sh. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish	164
Нуруллоев Л. Л. Енгил атлетика тўгаракларида шуғулланувчи болаларнинг умумий жисмоний тайёргарлиги кўрсраткичлари (умумтаълим мактаблари мисолида)	173
Абдуваҳобова Д. Э., Зияева М. Ф. Таълим жараёнида маънавий-маърифий ишлари-ни самарали ташкил этиш йўллари, шакл, метод ва воситалари	180
Рискулова К.Д. Чет тиллари ўқитувчилари компетентлигини шаклланишида халқаро хуқуқий-меъёрий мезонларни аҳамияти	186
Гаппарова М. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini korparativ yondashuv asosida tashkil etish va boshqarish (Maktabgacha ta'lim yo'nalishi misolida)	196
Hamroyev R. R. Tibbiyot institutlarida axborot texnologiyalar fanini o'qitishning jihatlari	201
Raupova Sh. A., Parpieva M. S. Features of medical and pedagogical control in the process of physical education	208
Sayfullayeva D. A., Baxronova Sh. I.a Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish	213
Юсупова С. Н. Фарғона водийсида миллий-маданий марказларнинг миллатлараро муносабатларни уйғунлаштиришдаги ўрни	225
Икромов Х. О. Талаба ёшларда фаол фуқаролик ва хаётий позициясини шакллантиришнинг фалсафий, хуқуқий ва ахлоқий жиҳатлари	234
Комолова Ф. К. Ўзбекистон олий таълим тизимидаги ўзгаришлар	240
Mo'minova D. K. Texnologik ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlarini o'qitishda "analogiyalar" texnologiyasidan foydalanish	244
Jo'rayev A. R., Xazratova Sh. X. Milliy hunarmandchilik makkablarida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish	249
Sayfullayeva D. A., Rayimova D. D. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o'qitishda kelajakka sayohat texnologiyasidan foydalanish	256
Djalolova D. F. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va pedagogik jarayondagi qoidalar	267



MILLIY HUNARMANDCHILIK MAKTABLARIDA YOSHLARNI HUNARMANDCHILIK TADBIRKORLIGIGA YO'NALТИРИШ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edires.2021.22.17.033>

*Jo'r'ayev Akmal Razzoqovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Xazratova Shahodat Xikmatovna,
Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lif kafedrasiga 2-kurs magistri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy hunarmandchilik maktablarida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma hamda tavsiyalar keltirilgan bo'lib, tadbirkorlikni boshlash uchun asosiy ma'lumotlar hamda ko'rsatmalar keltirilgan. Bundan tashqari kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini hunarmandchilik korxonalarini tashkil etishning umumiyligi tavsify belgilari keltirilgan. Bo'lajak hunarmand yoshlaringning qiziqishlarini rivojlantirishda tarmoqli rejlashtirish, suhbat, nima uchun organayzeri, ko'rgazmali, amaliymashq, ishbopo'yin innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda dars jarayonida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Hunarmandchilik, muktab, tadbirkor, texnologiya, metod, tahlil, milliy, mutaxassis, korxona, mulk, mahsulot, iste'dod, mehnat, hunarmand, quroqchilik, gazlama, ta'lif oluvchilar, shablon, andoza, ezkiz, chok haqi, baholash, ijodkor.

НАПРАВЛЕНИЕ МОЛОДЕЖИ НА РЕМЕСЛЕННЫЕ ПРЕДПРИЯТИЯ В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Джураев Акмал Рассокович,
Бухарский государственный университет доценти*

*Хазратова Шаходат Хикматовна,
магистр 2 курса кафедры технологического образования
Бухарского государственного университета*

Аннотация: В этой статье представлены знания, навыки и рекомендации, необходимые для обучения молодых людей ремесленному предпринимательству в национальных школах, а также представлена основная информация и рекомендации по открытию бизнеса. Кроме того, дана общая характеристика организации малых и частных предприятий ремесленных предприятий. Информация о сетевом планировании, интервью, организаторах, демонстрациях, практических упражнениях, деловых играх, использовании инновационных технологий и их использовании в классе предоставляется для развития интересов молодых ремесленников.

Ключевые слова: Ремесла, школа, предприниматель, технология, метод, анализ, национальный, специалист, предприятие, собственность,

продукт, талант, труд, мастер, печворк, ткань, ученики, шаблон, выкройка, двойник, припуски на шви, оценка, креатив.

DIRECTING YOUNG PEOPLE TO CRAFT ENTERPRISES IN NATIONAL CRAFT SCHOOLS

Jorayev Akmal Razzokovich,
Bukhara State University, Ph.D., Associate Professor

Khazratova Shahodat Hikmatovna,
2nd year master of the Department of Technological Education,
Bukhara State University

Abstract: This article presents the knowledge, skills and guidance needed to educate young people in craft entrepreneurship in national schools, and provides basic information and guidance on starting a business. In addition, a general description of the organization of small and private enterprises of handicraft enterprises is given. Information on network planning, interviews, organizers, demonstrations, practical exercises, business games, the use of innovative technologies and their use in the classroom is provided to develop the interests of young artisans.

Key words: Crafts, school, entrepreneur, technology, method, analysis, national, specialist, enterprise, property, product, talent, labor, craftsman, drought, fabric, learners, template, pattern, twin, stitching, evaluation, creative.

О’zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz o’zining qadimiyligi milliy hunarmandchilik an’analalarini tiklash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo’ldi. Ayni chog’da hunarmandchilik ishlab chiqarishini texnik jihatdan ta’minlashni o’stirish, hunarmandlarni kasbiy qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni xom ashyo bilan ta’minlashni tartibga solish, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini bozor talabiga muvofiq oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hunarmandchilik faoliyatini qonunchilik jihatidan tartibga solish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xo’jalik yuritishning yangi shakllarini, jumladan, hunarmandchilik tadbirkorligining me’yoriy-huquqiy bazasi shakllanib borayotgan o’tish davri iqtisodiyoti uchun bu, ayniqsa, muhimdir.

Kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalaridan farqli o’laroq, hunarmandchilik korxonalarini tashkil etishning quyidagi umumiyligi tavsifiy belgilarni ajratib ko’rsatish mumkin:

- muayyan tarmoqqa mansublik;
- mulk va boshqaruvning bir shaxsda amaliy birikishi;
- yuridik jihatdan erkinlik;
- mahsulot sotish bozoridagi hissanning katta emasligi;
- faoliyatning ijodiy tavsifi;
- milliy an’analarga asoslanganlik;
- asosan mahalliy bozorga xizmat qilish;

- boshqaruvning rivojlangan ierarxik tarkibining yo'qligi;
- tarmoqda hukmron mavqega ega bo'lmashlik;
davlat yordamining mavjudligi.

Hunarmandchilik sub'ektlari turli ko'rinishdagi kichik korxonalar va xususiy korxonalar shaklida tashkil etilishi yoki ular yuridik shaxs tuzmasdan yakka tartibdagi tadbirkor bo'lishlari mumkin. Ya'ni, hunarmandchilik – kichik tadbirkorlik sub'ektlarining bir qismi bo'lib, ularga yakka buyurtma bo'yicha kichik hajmda mehnat maxsulotini tayyorlash yoki xizmat ko'rsatish xos bo'lib, bunda qo'l mehnatining ulushi katta bo'ladi hamda hunarmandlar o'zlarining alohida bilim, ko'nikma va mahoratlaridan ijodiy foydalanadilar. Odatda, hunarmandchilik korxonasi ichida mehnat funksional va ishlab chiqarish jihatidan taqsimlanmaydi va ishlab chiqarish vositalariga hunarmand-ustaning mulkchiligi asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, mehnat jarayonida hunarmand-usta shaxsan ishtirok etadi.

Hunarmandchilik tadbirkorligini rivojlantirish har qanday mamlakat uchun muhim, chunki bu soha aholini ish bilan band etish bilan birga ularning turmush farovonligini oshirishga, o'zlaridagi mavjud qobiliyatni yuzaga chiqarishga, shuningdek, asriy milliy urf- odat va qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tishiga yordam beradi.

Yosh davrlari ichida o'smirlik davri murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichiga ega davr hisoblanadi. Bu davrda o'smirda ruhiy, ma'naviy, anatomik-fiziologik o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Oilada o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqliqdir.

Fanning nomi: Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash

Mashg'ulot mavzusi: Xalq hunarmandchiligidagi "Quroqchilik" san'ati. Tikiladigan "Quroq" buyumiga eskiz chizish va tayyorlash.

Mashg'ulotni o'tkazish vaqt -80 daqiqa

Mashg'ulot maqsadlari: Ta'limiy: talabalarga quroqchilik haqida keng tushuncha berish, xavfsizlik texnikasi qidalari va sanitariya-gigiyena qoidalari tayyorlash haqida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: talabalarni quroqchilik san'atiga qiziqtirib, ularni texnologiya faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, bir-birini hurmat qilishni hamda milliy va umummadaniy qadriyatlarni shakllantirish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: talabalarda qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritilgan mustaqilligimizni saqlashga bo'lgan mehrini oshirish, ajdodlarimiz merosini, ishlarini davom ettirish, yoshlarga o'rnak bo'la olish qobiliyatlarini shakllantirish orqali kasbga yo'naltirish;

O'quv faoliyatini tashkil etish shakli: Individual ishslash

O'qitish sharoiti: Jihozlangan auditoriya

O'qitish texnologiyasi va metodlari. Suhbat, "Nima uchun?" organayzeri, ko'rgazmali, amaliy mashq.

O'qitish vositalari: o'quv qo'llanmalar, darsliklar, kompyuter, videoproyektor, ekran, slayd, tarqatma materiallar, tikuv mashinasi, quroqdan tikilgan buyum namunalari, gulli va gulsiz materiallar, elimli qotirma, dazmol, ip, igna, qaychi, santimetr, lenta.

Tarqatma materiallar: testlar, texnologik xaritalar, slaydlar, yo‘riqnomalar, tarqatma materiallar, krassvord.

Mashg‘ulotning borishi

II. Tashkiliy qism. (7 daqiqa)

Salomlashish bo‘lajak hunarmand yoshlarining davomatini aniqlash, ish o‘rinlari va jihozlangan auditorianing sanitariya gigiyena holatini ko‘zdan kechirish, ularni reja bilan tanishtirish.

Reja:

- 1.Quroqdan tikiladigan buyumlar haqida tushuncha.
2. Quroqdan yostiqcha tikish uchun namunalarni tayyorlash.
3. Quroqdan yostiqcha tikish.

Talabalarga faollashtiruvchi savollar beriladi

1. Quroqning qanday turlari bor?
- 2 .Quroqlar qanday tayyorlanadi?
- 3 .Quroq tikishda nimalarga e’tibor berish kerak?
- 4 .Quroqning necha xil turi bor?
- 5 .O’zbek xonardonida quroq qanday ahamiyatga ega?

Bo‘lajak hunarmand yoshlarni faollashtirib javoblar tinglanadi hamda “Nima uchun?” organayzerini to‘ldiring deb alohida topshiriq beriladi va ular individual ravishda mustaqil bajaradilar.

“Nima uchun?” organayzerini to‘ldiring



Gazlama qoldiqlarini isrof qilmaslik uchun
Ko‘z tegmaslik uchun

.....

Bo‘lajak hunarmand yoshlarning javoblari tinglanadi va topshiriqni bajarish ketma-ketligi tekshiriladi. Yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar beradi. Bo‘lajak hunarmand yoshlarning ishlashlari uchun zarur didaktik qo‘llanmalar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatma xaritalar ilmiy adabiyotlar, bichish stoli, doska, didaktik texnik vositalar mavjud bo‘lgan o‘quv ustaxonasida o‘tkaziladi.

Asosiy qism: (35 daqiqa)

Bo‘lajak hunarmand yoshlariga axborot-kommunikasiya texnologiyalari va dasturlari orqali turli xildagi quroq buyumlarini tikishda uchraydigan mayda bo‘laklar ularga texnologik ishlov berish jarayonini tushuntiradi bajariladigan ishlar ketma-ketligi bayon qiladi.

Bo‘lajak hunarmand yoshlarning tadbirdorligini rivojlantirishda, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va dasturlari orqali quroqdan buyum namunalarini tayyorlash videoroligini namoyish qilib, ko‘rsatib beradi.

Bo‘lajak hunarmand yoshlarni ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida

quyidagi amaliy ko‘nikmalarni egallashlari kerak:

- gazlama qoldiqlarini alohida tayyorlab olish;
- quroqlarni tayyorlab olish;
- quroqlardan to’rtburchak andaza tayyorlab olish;
- quroqlardan yostiqcha namunasini tayyorlab olish;
- quroqlar uchun yelimli qotirmalarni tayyorlab olish;

Bo‘lajak hunarmand yoshlarini o‘rganish davomida shakllanadigan nazariy va amaliy bilimlar:

- dazlama qoldiqlarini alohida bichiqlarini tikish texnologiyasi;
- quroqlarni rangiga moslab tikish texnologiyasi;
- quroqdan turli xil buyumlarni tikish texnologiyasi;
- quroqdan tikilgan buyumlarga yelimli qotirmalarni yopishtirish texnologiyasi;

Nº	Ish ketma-ketligi	Ish eskizi	Kerakli asbob- uskunalar	Mahsulot
1	Yarim oy shaklidagi andozani har xil mato ustiga qo'yib chizib olamiz. Va 5mm joy qoldiramiz tikish uchun		Chizg'ich, qaychi	Gazlama
2	Chizilgan yarim oy shaklini qirqib olamiz		qaychi	Gazlama
3	2 ta har xil yarim oy shaklida qirqilgan matoni ustma ust qo'yib bir tomonini tikib olamiz		Igna ip	Gazlama
4	2 va 3- bo'laklarni mustahkam qilib tikib olamiz		Igna ip	Gazlama
5	Barcha yarim oychalarni birlashtirib tikib chiqamiz		Igna, ip, dazmol	Gazlama



1-rasm. Quroqdan yostiq tikish.

Tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish.

Har qanday tikiladigan quroq buyumiga eskiz chiziladi.

Eskiz-bu buyumning kichraytirilgan masshtab ko`rinishi. Eskiz chizishdan oldin tikiladigan buyumning o`lchovini aniqlab olishi kerak. Masalan: ushlagich 16x16, yostiq jildi 50x50, 60x60, 70x70, bolalar ko`rpasi 120x100, choyshob 120x220 sm.

Eskiz asosida buyumning andozasi tayyorlanadi.

Andoza-tikiladigan buyumning bir qismiga aniq o`lchovda tayyorlangan chizma. Bu chizma kalka qog`ozda chok haqi tashlanmay bajariladi. Ko`pincha quroq usulida bajarilgan buyumlar bir xil bloklardan iborat bo`lib, takrorlanib buyumning umumiy tasviri chiqadi. Bir blok uchun andoza chizib olamiz.

Lekin andoza kalka qog`ozdan yupqali qilgani uchun yupqa kartondan shablon tayyorlaymiz. Shablonlar ikki xil turda bo`ladi.

1. Chok haqi berilmagan.

2. Chok haqi berilgan.

Shablon uzoqroq xizmat qilish uchun kartondan emas, plassikadan, temirdan, taxtadan tayyorlash mumkin. Shablon sifatida oddiy uchburchak chizg`ichlarni ham ishlatish mumkin. (45, 60, 90 gradusli) Bular yordamida choklarni tekshirish oson bo`ladi. Shablonlar aniq bo`lishi kerak. Chunki bu andoza asosida buyumning umumiy ko`rinishi tuziladi va bu ishimizning sifatiga ta`sir etadi.

Mustahkamlash qismi: (20 daqiqa)

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

Ta’lim oluvchilarni o‘yining maqsadi, shartlari natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.

Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.

Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

“Ishbop o‘yin” metodining afzalliklari:

Ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini, qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;

- Ta’lim oluvchining boshlang‘ich bilimlari tajibalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

- Ta’lim oluvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratadi.

“Ishbop o‘yin” metodining kamchiliklari:

- Ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;

- vaqt ko‘p sarflanadi;

- Tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;

- Ta’lim oluvchining his-hayajoni to‘g‘ri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

Yakuniy qism: (18 daqiqa)

Mashg‘ulotda bo‘lajak hunarmand yoshlarning to‘plagan ballari e’lon qilinib, g‘olib talabalar rag‘batlantiriladi. Baholash mezonlari o‘quv maqsadlariga qay darajaga erishilganligini anglatuvchi ko‘rsatgich bo‘lib, u sonlar (“5”, “4”, “3”, “2”) bilan ifodalanadi. Bajarilgan ishlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi, yo‘l qo‘yilgan xatoliklar sabablari aniqlanadi, hamda bartaraf etish yo‘llari tushuntiriladi. Uyga bajarish uchun topshiriq beriladi. Ustaxonadagi narsalar yig‘ishtirilib, tartibga keltiriladi.

Ushbu dars ishlanmasidan ko‘rinib turibdiki, xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni bir nechta mantiqiy ketma-ketligidan foydalanish orqali quyidagilarga erishiladi.

- bo‘lajak hunarmand yoshlarining mashg‘ulotdagi faolligi oshadi;

- mustaqil ishslash qobiliyatları va ijodkorligi rivojlanadi;

- amaliy ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirish imkonini beradi;

- individual ishslashda barcha bo‘lajak hunarmand yoshlari mashg‘ulotga jalg etiladi;

- o’smirlarning hunarmandchilik odobi yuksaladi;

- o’smirlarda tadbirkorlik mayllari namoyon bo‘ladi;

- oila ravnaqi uchun ko‘proq daromad keltirish, boylik to‘plash imkoniyati tobora ortib boradi;

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati

Zohidova D.A. Hunarmandchilikka kirish / Metodik tavsiyanoma. – Toshkent, O‘MKXTRI, 2001. – 52 b.

Mazur V.A., Davidova F.T. Milliy hunarmandchilikka o‘qitish jarayoni mazmuni va uni tashkil qilish / Metodik tavsiyanoma. B.Rahimjonov tarjiması. – Toshkent, XTITI, 1995. – 24 b.

